

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHISINING KREATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Dovutxo‘jayeva Ominaxon Saidbakirxo‘ja qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 4-kurs talabasi

To‘rayeva Dilafruz Rustamboyevna

PhD dotsent, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

ANNOTATSIYA: Maqolada zamonaviy ta‘lim tizimi sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kreativ kompetentligini rivojlantirishning dolzarbligi, nazariy asoslari va amaliy jihatlari keng tahlil qilingan. Unda kreativlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning shaxs rivojidadagi o‘rni hamda pedagogik faoliyatdagi ahamiyati ochib berilgan. Xorijiy J. Gilford, E. Torrance, T. Amabile va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asosida kreativ fikrlashni rivojlantirish omillari, xususan, motivatsiya, erkin muhit va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kreativlik, kompetensiya, metod, tafakkur, kreativlik mezonlari, ijodkorlik, intellekt darajasi, kuzatish, tahlil, muammoli ta‘lim.

ANNOTATION: The article analyzes the relevance, theoretical foundations, and practical aspects of developing the creative competence of primary school teachers in the context of modern education. It reveals the essence of the concept of creativity, its role in personal development, and its significance in pedagogical activity. Based on the scientific views of foreign scholars such as J. Guilford, E. Torrance, T. Amabile, as well as local researchers, the factors influencing the development of creative thinking—particularly motivation, a free learning environment, and innovative approaches—are highlighted.

Keywords: Creativity, competence, method, thinking, creativity criteria, innovation, intelligence level, observation, analysis, problem-based learning.

АННОТАЦИЯ: В статье проанализированы актуальность, теоретические основы и практические аспекты развития креативной компетентности учителя начальных классов в условиях современной системы образования. Раскрыта сущность понятия креативности, её роль в развитии личности и значение в педагогической деятельности. На основе научных взглядов зарубежных учёных (Дж. Гилфорд, Э. Торренс, Т. Амабайл) и отечественных исследователей освещены факторы развития креативного мышления, в частности мотивация, свободная образовательная среда и инновационные подходы.

Ключевые слова: Креативность, компетентность, метод, мышление, критерии креативности, творчество, уровень интеллекта, наблюдение, анализ, проблемно-ориентированное обучение.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishi pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablarning tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi hamda ta'lim mazmunining yangilanib borishi o'qituvchidan nafaqat yuqori darajadagi kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki ijodiy fikrlash, yangilik yaratish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash qobiliyatini ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogika fanida **креативлик** va **креатив компетентлик** tushunchalariga muhim ilmiy kategoriya sifatida qaralmoqda. Kreativlik tushunchasi lotincha "*creare*" - "*yaratish*", "*vujudga keltirish*" ma'nolarini anglatib, shaxsning yangi g'oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yechim topish hamda mavjud bilim va tajribani yangi vaziyatlarda samarali qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi.

Bu mavzu xorijiy pedagog va psixolog olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan. Xususan, Joy Paul Guilford kreativ tafakkur nazariyasini ishlab chiqib, ta'lim jarayonida ijodiy fikrlashni rivojlantirish zarurligini ilmiy asoslab bergan. Shuningdek, E. Paul Torrance kreativlikni baholash va rivojlantirishga qaratilgan testlar yaratib, o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash usullarini taklif etgan. Bundan tashqari,

Teresa Amabile o'z tadqiqotlarida ta'lim muhitining erkinligi va motivatsiya kreativlikni rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlagan. Ushbu tadqiqotlar boshlang'ich ta'limda o'qituvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirishning nazariy asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

Mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili va metodologiya

Hozirgi kunlarda yurtimiz pedagog-professorlari boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativ kompetentligini rivojlantirish masalasini ilmiy jihatdan o'rganib kelmoqdalar. Jumladan, Nishonboy Saidahmedov o'z tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar o'qituvchining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlagan. Shuningdek, Baxodir Xodjayev pedagogik kompetensiyalar tizimini tadqiq etib, zamonaviy o'qituvchi faoliyatida kreativ yondashuv va mustaqil fikrlash muhim o'rin tutishini asoslab bergan. Bundan tashqari, Nizomiddin Muslimov ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash o'qituvchining kasbiy va ijodiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilishini ilmiy ishlari orqali yoritib bergan.

Kreativlikni o'lchash va rivojlantirish masalalarini chuqur o'rgangan tadqiqotchilardan yana biri amerikalik olim E. Paul Torrance hisoblanadi. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan "*Torrance kreativ fikrlash testlari*" ijodkorlik darajasini aniqlashda keng qo'llaniladigan metodik vositalardan biri hisoblanadi. Torrance kreativlikni to'rtta asosiy mezonlar orqali tavsiflaydi: *fikrlarning tezkorligi* (fluency), *moslashuvchanligi* (flexibility), *o'ziga xosligi* (originality) va *mukammalligi* (elaboration). *Fluency* indikatoriga ko'ra, o'quvchi bir muammo uchun qancha turli xil yechimlar topa oladi, ya'ni fikrlashning kengligi va hosildorligi baholanadi. *Flexibility* esa fikrlashning turli yo'nalishlarda qanchalik moslashuvchanligini o'lchaydi, ya'ni o'quvchi muammoni turli nuqtai nazardan ko'ra oladi va muammoning yechimlarini diversifikatsiya qiladi. *Originality* komponenti o'quvchining yangilik darajasini, ya'ni g'oyalarning noodatiy va noyob ekanligini aniqlaydi. *Elaboration* esa fikrlarni batafsil rivojlantirish va tafsilotlarga boy shakllantirish qobiliyatini o'lchaydi. Shu tarzda Torrance metodikasi o'quvchilarning kreativ tafakkurini tizimli ravishda baholash imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'limda kreativ yondashuvni ta'minlashda interaktiv metodlar muhim rol o'ynaydi. Interaktiv metodlar o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda o'quv materialini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Pedagogik tajribada keng qo'llanilayotgan interaktiv metodlardan biri "Aqliy hujum" metodidir. Ushbu metod o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. "Aqliy hujum" metodida o'quvchilarga muayyan muammo yoki savol beriladi va ular bu muammoga imkon qadar ko'proq g'oyalar taklif qilishga harakat qiladi. Bu jarayonda barcha fikrlar qabul qilinadi va baholanmaydi. Natijada o'quvchilar erkin fikr bildiradi, yangi g'oyalar ilgari suradi hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kreativ yondashuvga asoslangan metodlardan yana biri "Muammoli ta'lim" metodidir. Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchilar oldiga muammoli vaziyat qo'yiladi va ular bu vaziyatga mustaqil yechim topishga harakat qiladi. Bu metod o'quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantirib, ularni izlanishga undaydi. Muammoli ta'lim orqali o'quvchilar o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashni o'rganadi, turli variantlarni solishtiradi va eng maqbul yechimni tanlashga harakat qiladi.

Muammoli ta'lim metodi o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, izlanishi va muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim metodlaridan biridir. Ushbu metodda o'qituvchi tayyor bilimni berib qo'ymaydi, balki o'quvchilar oldiga muayyan muammo, savol yoki vaziyatni qo'yadi hamda ularni fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarishga yo'naltiradi. Natijada o'quvchilar bilimni mustaqil ravishda egallaydi va uni chuqurroq o'zlashtiradi. Muammoli ta'lim metodining asosiy maqsadi o'quvchilarda mantiqiy tafakkur, ijodiy yondashuv, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu metod orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortadi, ular faol ishtirok etadi va o'z fikrini erkin bayon qilishga o'rganadi. Muammoli ta'lim jarayonida avvalo o'qituvchi muammoli vaziyat yaratadi, so'ng o'quvchilar muammoning mohiyatini anglaydi, turli taxminlar ilgari suradi, yechim izlaydi va yakunda xulosa chiqaradi. Masalan, matematika

darsida “Nima uchun sonni nolga bo‘lib bo‘lmaydi?” yoki ona tili darsida “Nega ayrim so‘zlar bosh harf bilan yoziladi?” kabi savollar muammoli vaziyat yaratishga xizmat qiladi. O‘quvchilar ushbu savollarga javob topish jarayonida fikrlaydi, izlanadi va yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Muammoli ta’lim metodining afzalligi shundaki, u o‘quvchilarni faollikka undaydi, bilimlarni mustahkam egallashga yordam beradi hamda ijodkorlikni rivojlantiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda bu metoddan foydalanish bolalarning tafakkuri, nutqi va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli muammoli ta’lim metodi zamonaviy ta’lim tizimida samarali metodlardan biri hisoblanadi.

Galina Kodzhaspirova esa pedagogik texnologiyani ta’lim, tarbiya va o‘quvchi shaxsini rivojlantirish muammolarini hal etishni ta’minlaydigan metodlar, usullar va bosqichlar tizimi sifatida izohlaydi. Uning ta’rifiga ko‘ra, pedagogik faoliyat protsessual xarakterga ega bo‘lib, u muayyan harakatlar tizimi sifatida amalga oshiriladi. Pedagogik jarayon komponentlarini ishlab chiqish va ularni ketma-ket amalga oshirish ijobiy natijani kafolatlaydi. Yuqoridagi ta’riflarni umumlashtirib aytish mumkinki, pedagogik texnologiya o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi pedagogik faoliyatining oldindan loyihalashtirilgan modeli bo‘lib, u ta’lim jarayonini loyihalash, tashkil etish va amalga oshirishni o‘z ichiga oladi hamda jarayon ishtirokchilari uchun eng qulay va samarali sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, har bir texnologik element, tizim, zanjir va usul yaxlit pedagogik jarayonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, hech qanday texnologiya jonli, hissiy insoniy muloqotni to‘liq almashtira olmaydi. Vladimir Druzhinin va Evgeny Tunik ijodkorlikni rivojlantirishning asosiy shartlarini ishlab chiqqan bo‘lib, ular bolalar, jumladan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ham mosdir:

– oilaviy munosabatlarning ta’siri: ota-onalar o‘rtasidagi va ota-ona–bola o‘rtasidagi uyg‘un munosabatlar; ota-onaning ijodiy shaxs sifatida namuna bo‘lishi; oila a’zolarining umumiy intellektual qiziqishlari; ota-onalarning bolaga bo‘lgan kutishlari (yutuq yoki mustaqillikni kutish).

– maktabdagi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar: ijodkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar, metod va usullar; sinfda ishonchli muhit; bolalarning qiziquvchanligini qo'llab-quvvatlash; mas'uliyat va mustaqillikni rivojlantirish; mustaqil kuzatish, tahlil, umumlashtirish va taqqoslashga urg'u berish; ijodiy xulq-atvorni ijtimoiy rag'batlantirish. Ijodkorlikning tahliliy jihatlari Kognitiv jihatdan ijodkorlik inson intellekti darajasi bilan bog'liq holda o'rganiladi. Chunki bu hodisa yangi narsani yaratish bilan mavjud bilim va ko'nikmalarni egallash hamda qo'llash o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Shu sababli ayrim tadqiqotchilar ijodkorlikni intellekt bilan bog'laydi va uni IQ darajasi orqali ham baholashga harakat qiladi. Ularning fikricha, yuqori intellekt darajasi odatda yuqori ijodkorlik bilan bog'liq bo'ladi. Shaxsiy jihatdan esa ijodkorlik - bu ijodiy qobiliyatga ega shaxsning yangi moddiy va ideal mahsulotlar yaratish qobiliyatini ifodalovchi xususiyatidir. Bu yo'nalish vakillari ijodkor shaxslarning individual xususiyatlarini o'rganib, ularning umumlashtirilgan shaxsiy portretini yaratishga harakat qiladilar. Shu asosda E. Podguzova ijodkorlikning quyidagi mezonlarini ajratib ko'rsatadi.

– nostandartlik: Ijodkorlik ko'pincha noodatiy fikrlash va originallik bilan bog'lanadi. Nostandartlik tushunchasi originallikdan kengroq ma'noga ega.

– mazmunlilik: Natija qanchalik mazmunli bo'lsa, u shunchalik ijodiy hisoblanadi.

– mahsulot qiymati: Ijodiy mahsulot: kuchli taassurot qoldirishi; umumlashtirilishi va tejamkor bo'lishi; inson tajribasida o'zgarish keltirib chiqarishi; jamiyat yoki soha vakillari tomonidan qo'llanilishi va qadrlanishi kerak. Ijodkorlik inson hayoti davomida bir tekis rivojlanmaydi.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti ta'lim tizimidan faqat bilim beruvchi emas, balki yangilik yaratishga qodir, mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan shaxslarni tarbiyalashni talab etmoqda. Bunday shaxslarni shakllantirish esa bevosita o'qituvchining kasbiy mahorati, pedagogik salohiyati va kreativ kompetentligiga bog'liqdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchi shaxsining

poydevori qo'yiladigan davr bo'lgani sababli aynan shu bosqichda faoliyat yurituvchi pedagogning kreativligi kelajak natijalarga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligida kreativlikning o'rni tadqiqotning muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Aniqlanishicha, kreativ o'qituvchi darsni bir xil qolip asosida emas, balki o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda qiziqarli, interfaol va samarali tashkil etadi. Bunday pedagog o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, ularda izlanish ehtiyojini uyg'otadi, savol berishga rag'batlantiradi va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Natijada o'quvchi darsning passiv tinglovchisi emas, balki faol ishtirokchisiga aylanadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativ kompetentligini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kreativlik o'qituvchining nafaqat kasbiy mahoratini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal etish qobiliyati va innovatsion yondashuvlarini rivojlantirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan samarali foydalanish, xususan aqliy hujum va muammoli ta'lim metodlarini qo'llash o'quvchilarning divergent tafakkurini rivojlantirib, ularni faol ishtirokchiga aylantiradi. Shu bilan birga, motivatsiya, erkin va qo'llab-quvvatlovchi muhit hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar kreativlikni rivojlantirishning asosiy shartlari sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining an'anaviy bilim beruvchi rolikidan fasilitatorlik faoliyatiga o'tishi esa ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, oilaviy muhit, sinfdagi psixologik iqlim va ijtimoiy-pedagogik sharoitlar ham o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativ kompetentligini rivojlantirish o'quvchilarda tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash va yangilik yaratishga intilish kabi sifatlarni shakllantirib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Guilford J.P. *The Nature of Human Intelligence*. – New York: McGraw-Hill, 1967.
2. Torrance E.P. *Torrance Tests of Creative Thinking*. – Lexington: Personnel Press, 1974.
3. Amabile T.M. *Creativity in Context*. – Boulder: Westview Press, 1996.
4. Saidahmedov N. *Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent, 2010.
5. Xodjayev B. *Pedagogik kompetensiya asoslari*. – Toshkent, 2015.
6. Muslimov N. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari*. – Toshkent, 2012.
7. Kodzhaspirova G.M. *Pedagogika*. – Moskva: Akademiya, 2005.
8. Druzhinin V.N. *Psixologiya obshchix sposobnostey*. – Sankt-Peterburg, 2007.
9. Tunik E.E. *Psixologiya tvorchestva*. – Moskva, 2003.
10. Podguzova E. *Kreativnost i ee razvitie*. – Moskva, 2008.